O‘SIMLIK QOPLAMIGA ANTROPOGEN OMILLARNING TA’SIRI

Bekzodbek Umarov Baxtiyorjon o‘g‘li
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
Axmadov Qosimjon Furqat o‘g‘li
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada botanik olimlarning o‘simlik qoplami transformatsiyasi haqida izlanishlari,hududlarda biotaning rang-barangligini oshirish chora-tadbirlarihaqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek,antropogen omillarning, sanoat korxonalari va texnikalarning o‘simlik dunyosiga salbiy ta’siri va ularni kamaytirish usullari haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan

Kalit so‘zlar: Transformatsiya,o‘simlik qoplami,geobotanik tadqiqotlar,ekologik muvozanat, bioxilma-xillik, boshoqli-shuvoqli, quruq cho‘l

Аннотация: В данной статье приведены сведения об исследованиях ботаников по трансформации растительного покрова, мерах по увеличению разнообразия биоты в регионах, а также о негативном влиянии антропогенных факторов, промышленных предприятий и приемов на растительный мир и путях снижения им представлена научная информация

Ключевые слова: Трансформация, растительный покров, геоботанические исследования, экологический баланс, биоразнообразие, хвойные, сухая пустыня.

Annotation: This article provides information on the research of botanists on the transformation of plant cover, measures to increase the diversity of biota in the regions. Also, on the negative effects of anthropogenic factors, industrial enterprises and techniques on the flora and ways to reduce them. scientific information is provided

Key words: Transformation, vegetation cover, geobotanical research, ecological balance, biodiversity, conifer-wort, dry desert.

Kirish

O‘simliklar jamoalarining tabiiy sharoitidagi transformatsiyasi yo‘nalishida olib borilgan asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘tloq o‘simliklarining dinamikasini o‘rganish hisoblanib, bunday xarakterdagi geobotanik tadqiqotlar Anderson J.E. (2001), Briske D.D.(2012), Miles J.(1979, 2012), Milton S.J. (1994), Prach K. (2006), Rees M. (2001) kabi olimlari tomonidan asosan AQSH, Avstraliya, Argentina, Eron, Xitoyning Sinvuziyan-Uyg‘ur avtonom okruglarida olib borilgan. Ilmiy jihatdan yangi yo‘nalishga asos bo‘ladigan yirik tadqiqot ishi Anderson J.E., Inouye R.S.(2001) larning “*Landscape-scale changes in plant species abundance and biodiversity of a sagebrush steppe over 45 years*” bo‘lib, Kaliforniya sharoitida 45 yil davomidagi o‘simliklar qoplamidagi o‘zgarishlar, ya’ni o‘tloqlardan rejasiz foydalanish,

gerbitsidlarni me’yoridan ortiqcha qo‘llash hamda kuchli qurg‘oqchilik kabi omillarning o‘simlik qoplamiga ta’siri kuzatilgan (2001).

XX asrga kelib tabiiy ekosistemalarga antropogen tazyiqni ortib borishi bilan o‘simliklar qoplamidagi dinamikani o‘rganish muammosi tobora dolzarblik kasb eta boshladi. O‘tgan asrning 70 yillaridan boshlab Rossiyada G.I.Doxman (1960), L.G.Ramenskiy (1971), ye.M.Filroze (1978), P.L.Gorchakovskiy (1979), G.V. Andreyev, N.S.Ivanova (1999), V.S.Ipatov (1990) larning dastlabki ishlari chorva mollarini o‘tlatish, yo‘l qurilishlarini o‘tkazish, kommunikatsiya tarmoqlaridagi ishlar, uy-joy obyektlarini qurish, rekreatsiya ishlari, tabiiy va insonlar ishtirokidagi yong‘in kabilarning o‘simliklar qoplamiga ta’sirlariga bag‘ishlangan.

Tabiiy landshaftlarda bioxilma xillikni saqlab qolish, antropogen omillar ta’siridagi o‘simliklar qoplamida yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatish, baholash va ilmiy xulosalar chiqarish uchun milliy bog‘lar va alohida muhofazaga olingan tabiiy hududlar asosiy “poligon” hisoblanadi. Yirik sanoat obyekti bo‘lgan Pavlodar viloyati cho‘l mintaqasida joylashganligi sababli o‘simlik qoplamining antropogen transformatsiyasi komleks o‘rganilgan;

1) Sanoat obyektlari atrofidagi o‘simlik qoplamiga ta’sir qiluvchi asosiy antropogen omillarni aniqlangan (50 km radiusda);

2) Floraning zamonaviy turlar tarkibi, ekologik va biologik xususiyatlarini va antropogen transformatsiya omillarini aniqlashda ayrim turlarning indikatorlik va diagnostik o‘rnini aniqlangan;

3) o‘simlik qoplamining hozirgi holatini, tarkibiy va makon tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini baholangan;

4) O‘rganilgan hududdagi o‘simliklar qoplamining tiklanishi bo‘yicha tavsiyalar, floristik va fitotsenologik xilma-xillikni saqlash borasida ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Hududning o‘simliklar qoplami bu regionda sanoat rivojlangunga qadar chimli-turli o‘tlar-boshoqdoshlardan va tikan-kovulli (*Festuca valesiaca, Stipa capillata*) formatsiya bilan qoplangan quruq cho‘llardan iborat bo‘lgan. Ko‘p yillar davomida antropogen omillarning ta’siri oqibatida hozirgi kunga kelib azaliy cho‘l jamoalaridan, xususan boshoqli-shuvoqli, lapchatka-shuvoqli boshoqdoshlar jamoalari saqlanib qolgan. Natijada hududning ekologik muvozanati va floristik xilma-xilligi ziyon ko‘rgan. Botanik tadqiqotlar olib borilgan hudud sarxadlaridan 41 oila, 142 turkumga mansub 250 turdagi yuksak o‘simliklar aniqlangan (V.A.Kamkin, 2009). Hudud sarxadlarida ma’lum darajada cheklangan holda xo‘jalik faoliyatini olib borilishi (maxsus fitomeliorativ tadbirlar) o‘simliklar qoplamini o‘zini-o‘zi tiklashida muhim omil bo‘ladi.

Xulosa:Bu ilmiy tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, bu sohada olib borilgan ishlarning natijalaridan O‘zbekistonda Olmaliq, Angren, Navoiy

kabi sanoat shaharlari, Surxondaryo viloyati (qo‘shni Tojikiston hududidagi alyuminiy zavodi ta’siri) va Andijon (Maylisuv texno hududi) viloyati hamda Farg‘ona vodiysining florasi va o‘simliklar qoplami transformatsiyasini o‘rganishda keng foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Ergashev A. Umumiy ekologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
3. To‘xtaev A. S. Ekologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. To‘xtaev A. S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 1964.